

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



**Bosh muharrir:**

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

**Mas'ul muharrir:**

PhD., dots., A.A. Rasulov

**Mas'ul muharrir o'rinbosari:**

PhD., dots., O.N. Imomov

## TAHRIR HAY'ATI

<b><u>Fizika-matematika fanlari:</u></b>	akad. S. Zaynobiddinov akad. A. A'zamov f-m.f.d., prof. B. Samatov f-m.f.d., dots. R. Xakimov f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
<b><u>Biologiya fanlari:</u></b>	akad. K. Tojibayev akad. R. Sobirov b.f.d., prof. A. Batashov b.f.d., prof. N. Abdurahmonov b.f.d., prof. F. Kushanov b.f.d., prof. A. Kuchboyev b.f.d., dots. D. Dexqonov
<b><u>Texnika fanlari:</u></b>	t.f.d., prof. A. Umarov t.f.d., prof. S. Yunusov
<b><u>Tarix fanlari:</u></b>	akad. A. Asqarov s.f.d., prof. T. Fayzullayev s.f.d., prof. N.B. Dexkanov t.f.d., prof. A. Rasulov
<b><u>Falsafa fanlari:</u></b>	f.f.d., prof. M. Ismoilov f.f.d. dots. Z. Isaqova f.f.d., G. G'affarova p.f.d., dots. T. Ismoilov PhD. A. Abdullayev
<b><u>Pedagogika fanlari:</u></b>	p.f.d., prof. U. Inoyatov p.f.d., prof. B. Xodjayev p.f.d., prof. O'. Asqarova p.f.n., dots. M. Nishonov p.f.n., dots. A. Sattarov p.f.n., dots. M. Asqarova p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva p.f.d., dots. S. Abdullayev PhD., dots. D. Sarimsakova PhD., B. Urinov

**Texnik muharrir:**

S. Xoshimov

**Tahririyat manzili:**

Boburshox ko'chasi, 161-uy

**Kimyo fanlari:**

akad. S. Nigmatov  
k.f.d., prof. Sh. Abdullayev  
t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev  
k.f.n., dots. T. Sattarov  
k.f.n., dots. A. Hurmamatov  
PhD. D.S. Xolmatov.

**Filologiya fanlari:**

fil.f.d., prof. N. Uluqov  
fil.f.d., prof. H. Usmanova  
PhD. H. Solixo'jayeva  
PhD. dots. U. Qo'ziyev  
PhD. H. Sarimsoqov  
fil.f.d., N. Dosboyeva

**Qishloq xo'jaligi fanlari:**

g.f.d., prof. B. Kamalov  
q-x.f.n., dots. A. Qazaqov

**Geografiya fanlari:**

g.f.d., dots. B. Kamalov  
g.f.d., prof. A. Nigmatov  
g.f.d., dots. A. Nazarov

**Iqtisodiyot fanlari:**

i.f.d., prof. N. Maxmudov  
i.f.d., prof. O. Odilov

**Tibbiyot fanlari:**

b.f.d., prof. G'. Abdullayev  
tib.f.n., dots. S. Boltaboyev

**Psixologiya fanlari:**

p.f.d., prof. Z. Nishanova  
p.f.n., dots. M. Maxsudova

**Rasmiy web sahifa:**



journal.namdu.uz

**Faks:** (0369)227-07-61

**e-mail:** science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 17-maydagi 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



Sharipova Oygul Tursunovna

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası  
dotsenti, falsafa fanlari doktori(DSc)  
E-mail: oygulsharipova@gmail.com

### XOJAGON TASAVVUFYI TARIQATIDA "TAVBA" MAQOMI HAQIDA

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xojagon tasavvufiy tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniyning tasavvufiy ta'limotidagi "tavba" va boshqa masalalarinig falsafiy tahlili o'z aksini topgan. Xojagonlar tariqatiga oid fikrlar Abduxoliq G'ijduvoniyning "Vasiyatnoma", "Maqsad as-solikin", "Odobu tariqat" kabi asarlarida bayon etilgani tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** tasavvuf, tafakkur, tana, ruh, ilm, vijdon, zikr, ijtimoiy hayot, axloqiy yetuklik, qalb sog'lomligi, tariqat.

Шарипова Ойгул Турсуновна

Бухарский государственный университет, доцент кафедры «Исламская история и источниковедение, философия», доктор философских наук (DSc)

### ПОНЯТИЕ «ПОКАЯНИЕ» В УЧЕНИИ ХОДЖАГОНА.

**Аннотация:** В данной статье отражен философский анализ «покаяния» и других вопросов в суфийском учении основателя суфийской секты Ходжаган Абдухолика Гиждувани. Анализируется, что взгляды на Тарикат Ходжагонов выражены в произведениях Абдухолика Гиждувани, таких как «Васиятнома», «Мақсад ас-Соликин», «Одобу Тарикат».

**Ключевые слова:** Суфизм, созерцание, тело, дух, наука, совесть, память, общественная жизнь, нравственная зрелость, психическое здоровье, секта.

Sharipova Oygul Tursunovna

Bukhara State University, Associate Professor of the Department of "Islamic History and Source Study, Philosophy", Doctor of Philosophy (DSc)

### THE CONCEPT OF "REPENTANCE" IN THE TEACHINGS OF KHOJAGON.

**Annotation:** This article reflects a philosophical analysis of "repentance" and other issues in the Sufi teachings of the founder of the Khojagan Sufi sect, Abduholik Gijduvani. It is analyzed that the ideas of the Khojagon tariqa are expressed in the works of Abduholik Gijduvani, such as "Vasiyatnoma", "Maqsad al-solikin", "Odobu tariqa".

**Key words:** Sufism, contemplation, body, spirit, science, conscience, remembrance, social life, moral maturity, mental health, sect.

#### Kirish

Tasavvuf-bu insonning ruhiyati va ma'naviy olamidagi jarayon bo'lib, insonni ruhiy va ahloqiy kamolotga yetkazuvchi bir ilmdir. Tasavvufning mavzusi-haqqa yetishish uchun nafsni tiyib, axloqni go'zallashtirish bo'lib, uning mavzusini inson ruhi, xulqi va ruhoniylar tuzilishi tashkil qiladi.

Yaqin va O'rta Sharqda IX asr boshlariga kelib, tasavvufning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi. Bu davrda so'fiylarning amaliy-ruhiy mashqlar orqali o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir usullari shakllandi. Shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu to'rt qismga oid

qarashlar majmui tuzildi. Tasavvuf alohida mazhabiy ilm va amal sifatida qaror topdi.

"Tariqat" arabcha so'z bo'lib, "usul", "yo'l", "maslak", "so'fiylik yo'li" ma'nolarini anglatadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Tariqat ahli-so'fiylardir. Shayx Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" asarida tariqatning ma'nosi "rost, to'g'ri yo'l" dir. Tariqat ahli, ya'ni so'fiylar esa uch narsada: dam, qadam, karamda o'zgalarga ibrat bo'lishlari lozim. Ya'ni keraksiz-o'rinsiz gaplardan tiyilmoq-dam, behuda ishlarga qadam qo'ymaslik-qadam, zaruriy paytda yordam berish-qaram hisoblanadi [1].

Tariqatning asl mohiyati ibodat va poklik bo'lganligi uchun mazkur mazhab dinu islomga zid emas. Tariqat

bashariy vujudan qutilib, ruhiy kamolotga muayassar bo'lish orzusi, ya'ni insoniylik, ilohiylik haqiqatini topishdan iboratdir. Shu ma'noda, Abduxoliq G'ijduvoni asos solgan xojagon tariqatining ham asosini muqaddas islomiy manbalar tashkil etgan bo'lib, o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga asoslangan ta'limotdir.

Xojagonlar tariqatiga oid fikrlar Abduxoliq G'ijduvoniyaning "Vasiyatnoma", "Maqsad as-solikin", "Odob tariqat" kabi asarlarida bayon etilgan.

"Maslak al-orifin" va "Hoja Abduxoliq G'ijduvoni o'gitlari" asarlarining o'xshashlik va farqli tomonlari bor. O'xshashlik tomoni shundaki, ikkala kitob ham tariqat maqomatlarini tushuntirishga bag'ishlangandir. Ayrim boblardagi fikrlar bir xil. Farqi shundaki, "Maslak al-orifin" asarida boblar soni 23 tani tashkil qilib, maqomlar, ya'ni solikning ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichlari kengroq berilgan, "Xoja Abduxoliq G'ijduvoni o'gitlari" kitobida esa boblar soni 13 ta bo'lib, maqomlar qisqaroq yoritilgan [2].

Bu asarlar Abduxoliq G'ijduvoniyaning tasavvuf borasidagi fikrlarini o'rganishda, Xojagon-naqshbandiya tariqati asoslarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

"Tariqat"ning ma'nosi ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-ahloqiy kamolot yo'li ekan, uni tasavvufning amaliy qismi deb ta'riflaydilar. Chunki pir - muridning qoidalari, odobiga rioya etish, solik bajarishi kerak bo'lgan yo'l-yo'riqlar va boshqa usullar shuning ichiga kiradi.

Tasavvuf tariqati borasida ham Xojai Jahon Abduxoliq G'ijduvoni o'z mustaqil fikru aqidalariga ega hakim edi. Xojai Jahon solikning ruhiy ma'naviy bosqichlarini quyidagilardan iborat qilib qo'ygan: 1.Tavba 2.Iroda 3. Muridning shayxga ehtiyoji 4.Zikr 5.Halollik 6.Haj martabasi 7.Darveshlik odobi 8.Zuhd 9.Allohni tanish 10.Nafs sifatleri 11.Qalbning salomatligi 12.Sabr va rizo 13.Muroqaba va musohaba 14. Muhabbat va sidq 15.Taslim va tavfviz 16.Shukr va tavakkul 17. Alloh Taollohning ma'rifati 18. Ixlos va riyo 19. Ilohiy axloq 20. Mushohida va muoina 21. Xirqa ma'nosi 22. Kechki ibodat 23. Yo'l masalasi [3].

Tariqatning birinchi maqomi, ya'ni manzili, "bekati" tavba hisoblanadi. Abduxoliq G'ijduvoniyaning "Tavba va uning shartlari bayoni xususida" nomli asarda: "Bilgilki, yo'lning ibtidosi (boshi) tavadir. Tavbaning ma'nosi-qaytish, ya'ni kamolotga, oliy ahloqiy sifatlarga, Tangrining rizoligiga qarshi bo'lgan barcha so'z va ishlardan qaytishdir", deb ta'kidlaydi. Tavbani "bobul avbob" - "eshiklarning eshigi" ham deydi, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlashadi. Abduxoliq G'ijduvoniyaning Qur'oni Karimdagi Tangrining shunday kalomini keltiradi: "Ey inson, Allohga iymon keltirgin! Unga tomon qaytgin va nasuh tavbasiga erishgin". Payg'ambar aytadilarki: "Kim tavba qilsa sidq va ixlos bilan qilsin. Shunda Alloh uning gunohlarini kechirguy. Tangrining ham shunday so'zlari borki: "kim

agar tavbani sidq bilan qilsa, va solih amallar bajarsa, gunohlari mag'firat bo'lgay". Rasul yana aytadilarki: "Tavba mo'minning pushaymon bo'lishi va u xavfdan vujudga keladi". Demak, yuqorida aytganimizdek, sidq-sidqidildan xolisona muhabbat bilan tavba qilishdir. Tavba xolisona, sidq bilan qilinsa, solih, ya'ni yaxshi amallar qilinsa, uning gunohlari mag'firat bo'ladi, ya'ni kechiriladi, deyiladi. Mo'minning dildan pushaymon bo'lishi bu xavfdan, qo'rquvdan vujudga keladi. Qo'rquv tavbasi, gunohga iqror bo'lish-oddiy odamlarga xos. "Hayot vaqtida Yaratgandan qo'rqib yashagan kishida oxiratda azob bo'lmaydi". Chunki bunday odam doimo andishali bo'ladi. Hamma ishning oqibatini o'ylab, fikr bilan qiladi. Tavba qilib, kechirim so'rab, yomon amallarni tark etadi. Demakki, birovlariga zarar keltirmaydi. Shu o'rinda Abduxoliq G'ijduvoniyaning "Tavbai nasuhning nechta belgisi bor?" degan savolga bergan javoblari keltirilgan. Abduxoliq G'ijduvoniyaning buyuradilarki, ya'ni javob beradilarki: "Tavbai nasuhning uchta belgisi bor: birinchisi shuki, nimaiki Tangrining rizoligiga xilof bo'lsa, darhol undan qaytishdir. Ikkinchisi shuki, g'afolat bilan, befarmonlik bilan o'tgan va behuda ketgan vaqtlariga doimo pushaymon bo'lishdir. (An-nadomu alo mo mazo). Uchinchisi shuki, gunoh qilmaslikka azm va jazm qilishdir (Al azmu an lo a'uda ilayhi abado)". Xojai Jahon aytadiki, "Mo'min banda gunohlaridan tavba qilganidan keyin, shart shuki hech qachon undan shu qilgan gunohlarining pushaymonligi ketmasin, u qaytib gunoh qilmasin". Bu holatni ona ko'krigidan chiqqan sutga o'xshatadi: "Ko'krakdan chiqqan sut qaytib unga qayta olmasligini, ya'ni kira olmasligi, kirish imkonini topa olmaganligi kabi tark etilgan yomon amallar tavba qilingan gunohlarga qayta olmasin". Abduxoliq G'ijduvoniyaning "Tavbaning haqqi nima?" degan savolga: "Tavbaning haqqi budirkim, tavbadan keyin, tavbada sobit bo'lsin, chunki tavbadan keyin yana gunohlarga yuzlansa, bu tavba, haqiqiy nasuh tavbasi bo'lmagay" deb javob beradi [4].

**Natijalar.** Demak, gunohlarini, noto'g'ri ishlarini tushungan kishi uni qaytib qilmaslik ahdida mustahkam turishi, agar hayoti davomida takrorlasa, bu haqiqiy tavba bo'lmaydi, deyiladi. Biz kundalik turmushimizda bilib-bilmasdan xatoliklarga yo'l qo'yamiz. Ozigina noto'g'ri ish qilganda, biror katta gunoh qilmayapmizku, deb o'zimizni tinchitamiz. Mo'tabar shayx Xojai Jahon "Gunohning katta kichigi bo'lmaydi, u har qanday insonga zarar keltiradi, gunohni umuman qilmaslik kerak. Doimo istig'for aytish bilan (ya'ni kechirim so'rash bilan) o'zingni gunohning g'uborlaridan tozalagaysan" deb ta'kidlaydi. Ulug' orifdan: 1. Tavbaning nafasi nima? 2. Asli nima? 3. Far'i nima 4. Tavbada mustahab nima?"-deb so'rganlarida: 1-tavbaning nafasi qilingan gunohlardan pushaymonlik va yana pushaymonlikdir, 2-tavbaning asli-ma'rifatning nuridir. Gunohlar natijasida ma'rifatning nuri hijobga kiradi, gunohlardan pushaymon bo'lib uning olovida o'zini kuydirsa, (ya'ni tushunsa, sidqi dildan pushaymon

bo'lsa) u poklanadi. Natijada ma'rifatning nuri hijobdan chiqadi. Xojai Jahon aytadiki: "Ey mo'min, banda bilginki, gunohlar zahri qotildir. Kishi sezadiki, bu zahri qotildan juda ko'p iste'mol qilib kishi o'limga yaqinlashgan ekan. Tavba qilib gunohsiz yashay boshlagan paytda, gunohlar zulmatidan pok bo'ladi. Bu nurning yorug'ligi uning botinini nurga to'ldiradi va bu nurning yorug'ligi bilan qalbida muhabbat paydo bo'ladi. Bu Allohga qarshi bo'lgan muxolifatdan saqlaydi. Shunga botinidan dunyoga bo'lgan do'stligi ketadi va u nafsiga xilof turadigan bo'ladi va uning qalbida halovat paydo bo'ladi. 3. Tavbaning far'i: ahvolning o'zgarishi, har bir a'zoning gunohdan tozalanishi. 4. Tavbada mustahab shudirki, agar mo'min banda yoshligida tavba qilsa, uni Alloh yaxshi ko'radi va ko'p savob beradi" [5].

**Muhokama.** Insonlar borki, hayotda doimo, yoki qandaydir bir lahzada, o'zining yashash tarzi Allohning talablariga muvofiq emasligini, ya'ni insoniy emasligini tushunadi. Bundan pushaymon bo'ladi, xafa bo'ladi. Iztirob chekib, vijdoni qiynaladi. Shuning noto'g'riligini tushunish, amallaridan pushaymon bo'lish insoniy ahloqiy sifatdir. Chunki o'zi hayot tarzining noto'g'riligini tushunmaydigan, yoki tushunishni hohlamaydigan insonlar ham oz emas. Noto'g'ri qadamini vaqtida tushunib, pushaymon bo'lish insonni to'g'ri hayotga boshlaydi. Shuning uchun mo'tabar shayx gunohlardan pushaymon bo'lishini tavbaning nafasi deydi. Chunki gunohlar ma'rifatni bulut kabi to'sadi. Ma'rifat hijobga kiradi. Pushaymonlik poklanishga olib kelib, har qanday hijoblarni ko'tarib, ma'rifatni yuzaga chiqaradi. Chunki gunohlar insonni o'ldiradigan zahri qotildir. Xojai Jahon shuning uchun o'z turmush tarzini sarhisob qilmaydiganlarni "bu zahardan ko'p iste'mol qilib, o'limga yaqinlashgan ekan" deydi. Zulmat-qorong'ulikni gunohlar keltirib chiqaradi. Afsuski, kundalik hayotimizda ko'p yomon gunohlarni ma'rifatli kishilar sodir etganligining ham guvohi bo'lamiz. Gunohsiz yashagan paytida esa kuni oydinlashadi, poklanadi, botini nurga to'ladi, ya'ni qalbi soflanadi. "Qalbida muhabbat paydo bo'ladi", yomon ishlardan saqlanadigan bo'ladi. "Nafsiga xilof turadi", iymon dushmaniga qarshi turadi. Chunki nafs xudbinlikni, "o'zim bo'lay" degan dunyoqarashni tug'diradi. Xudbin inson o'zining manfaati uchun har qanday yomonliklardan qaytmaydi. Jamiyatga katta zarar keltiradi. O'zgalar uchun foyda keltirmaydi. Nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, nomaqbul ishlardan xazar etmaydi, boshqalar hisobiga bo'lsa ham "yaxshi" yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo'lib qoladi. Shu holatlarga xilof tursa, uning qalbida halovat, ya'ni huzurlanish, taskin paydo bo'ladi [6].

"Far'i" degan so'zning ma'nosi: "Ahvolning o'zgarishi", gunohsiz bo'lgan inson daraxt bo'lsa, uning gunohsiz bo'lishi, shohalarning, ya'ni har bir tana a'zosining gunohdan tozalanishi kabidir. Gunohsiz kishining o'zi bo'lmaydi. Bu murakkab hayotda inson

bilib-mi, bilmay-mi baribir xato qilib qo'yadi. Shuning uchun "Faqat beayb Parvardigor" deb bejiz aytmaydilar. Lekin doimo inson gunoh qilib qolishdan ehtiyot bo'lishi lozim.

Tasavvufda bu tariqatning vara' maqomi hisoblanadi: "vara" so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib, bo'lgan ishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish demakdir [7]. Vara'ning uch ko'rinishini qayd etadilar. Til vara'i-ya'ni tilni bema'ni so'zlar uchun ishlatmaslik, g'iybat-to'hmatga berilmaslik; ko'z vara'i - shubhali narsalarga qarashdan saqlanish; qalb vara'i - ya'ni past himmatni tark etish va noxush ishlarni qilmaslik, bu bir so'z bilan aytganda til, ko'z, quloq va oyoqqa band solish demakdir. Gunohsiz bo'lish uchun gunohning sababi bo'ladigan, yomon kishilar bilan bog'lanmaslik, o'tirib-turmaslikka da'vat etiladi. "Chunki bunday kishilar seni bulg'aydi", "Quyoshdek buyuk nurli bo'lsang ham", "bunday bulutdek qora niyatli kishilar nurlaringni to'sib qo'yadi", ya'ni hamma sifatlarini yo'qqa chiqaradi, deb ta'kidlanadi. Shuning uchun yoshligidanoq gunohlarini tushunib yetsa, ko'p savoblar oladi [8]. Chunki yoshligidanoq yaxshi amallarni buzib, gunoh ishlar qilgan insonning qalbi g'uborga to'lib ketaveradi. Uning haqiqatni ko'rish quvvatini gunohlar yopib qo'yadi. Buni mo'tabar Xojai Jahon quyidagicha tasvirlaydi: Abduxoliq G'ijdivoniydan "Tavbaning haqiqati nima?" deb so'raganlarida: "Avvali uldirki, Tangri farmoniga xilof ish qilgan bo'lsa, pushaymon bo'lish va Xudovanddan qo'rqib, ko'zi giryon bo'lishdir". 2.Xudoning xavfini andisha qilib, hamma vaqt qalbida qo'rqib yuradi. 3. Uning azobi yodga kelib, qalbida qo'rquv bo'ladi.

Demak, Xojai Jahon tavbaning birinchi haqiqati sifatida keltirilayotgan shart: avvalo noto'g'ri ishlardan pushaymon bo'lish va xudoning azimati, qahri va hamiyatidan, ya'ni irodasidan qo'rqib ko'zi giryon bo'lishdir, deydi. Tangrining qahridan ham qo'rquv, ham rahmatidan umidvor bo'l, deydi. Bu borada hazrat Xojai Jahonning quyidagi ruboiysi mavjuddir:

Az qahri Xudo xaloskori pesh or,  
Az rahmati o' umidvori pesh or,  
Payvasta miyoni xavf mebosh va rijo,  
Zinhar du tariqi haq guzori pesh or.

Mazmuni:

Doimo Xudoning qahridan qo'rq,  
Va uning rahmatidan umidvor bo'l,  
Doimo xavf va rijoning o'rtasida bo'lgil [9].

Shu ikki yo'l orqali haqqa yaqinlashish imkoniga ega bo'lasan.

"Xavf"-qalbning ishonchdan, iymondan chiqishi, ikkilanish tahlikasining ko'ngilga qo'rquv solishidir. Solik azobdan emas, balki makrdan, nafs makridan qo'rqadi [10].

Odam jismi-jasadi qanday o'zaro payvand, yaxlit tizim bo'lsa, koinot ham bir-biriga shunday bog'liq bir

tizimdir. Yig'lash natijasida odam organizmidagi yomon quvvatlar chiqarib tashlanadi. Bu yomon quvvatlar odam tanida ortiqcha jism va ruh o'rtasidagi kurash natijasida vujudga kelgan bo'ladi. Bu moddiylikka, ya'ni ko'z yoshiga aylantirilib, chiqarib yuboriladi. "Ko'zing giryon bo'lsin" degan iboraning mazmuni shudir. Chunki Abduxoliq G'ijduvoni: "Tavba qiluvchining jismi tarson va larzon bo'ladi, ko'zi giryon bo'lib, uning xil'ati (ya'ni kiyimi) Rahmoning yuzi bo'ladi", deydi. Solik jismining doimo qo'rquvda bo'lishi, tili va dili, dili va amallari bir xil bo'lishi, shayton makridan ehtiyot bo'lishni ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Demak, ko'z yig'lab, tozalanib, soflanib unga Xudo nur va asl ko'rish quvvatini beradi. Yig'lash natijasida gunohlardan tozalangan ko'z hamma narsani ko'radigan bo'ladi. Tavbai haqiqiyning ikkinchi hosilasi-qo'rquvda bo'lgan qalbning xil'ati butun olam Xudovandiga imonda sobitlik-mustahkamlikdir. Ya'ni Xudodan qo'rqadigan yurakning imoni mustahkam bo'ladi. Imon - til va dilning birligi, yurakda hech qanday qarama-qarshilikning bo'lmasligi, binobarin yurakning

sog'lom bo'lishidir. Tavbai haqiqiyning uchinchi haqiqati: "Tarson va larzon, ya'ni titroqda bo'lgan jismning xil'ati-Tangridan rahmat va g'ufrodir" - deyiladi, ya'ni bunday jism rahmat nurlari orqali to'la poklanadi. Bu poklanish juda yuksak va abadiydir. Chunki bu tanada butun tabiat bilan uyg'unlik bo'ladi. "Demak, shular amalga oshganda, (ko'z, qalb, jism) poklanganda kishining ishlari yaxshi, ya'ni solih bo'ladi. "Barcha ibodatlarining boshi tavbadir. Shundan keyin barcha ibodatlarining sifati amalga oshadi va bashorat bo'ladi" deydi Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoni.

Hozirgi global jamiyatda yoshlar tarbiyasi har doimdagidek muhim hisoblanadi. Bo'lajak avlodni yetuk, keng tafakkurli qilib tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimiz, ayniqsa insonshunoslik fani hisoblangan tasavvuf ta'limotining o'rni o'ziga xosdir.

Shu ma'noda Abduxoliq G'ijduvoni asos solgan xojagon-naqshbandiya tariqatining axloqiy ta'limoti benihoya ahamiyatidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баҳодиров Р.М. Илмлар фазилати. Т.: Қатортол-Камолот, 1997. 45 бет.
2. Абдухлолиқ Гиждувоний. Маслак ал орифин.-Б. 12 а.
3. Абдухлолиқ Гиждувоний. Маслак ал орифин.-Б. 13 а.
4. Абдухлолиқ Гиждувоний. Маслак ал орифин.-Б. 15 а.
5. Абдухлолиқ Гиждувоний. Васиятнома. - В. 186 а, б.
6. Абдухлолиқ Гиждувоний. Маслак ал - орифин. -В. 17 а.
7. Бекмуродов М. Фаросат илми.Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбба ижодий уйи, 2022. 191 б.
8. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
9. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
10. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т.: "Фан". 2021. 244 б.

**FALSAFA FANLARI****09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ****PHILOSOPHICAL SCIENCES**

<b>Tojikiston siyosatida diniy bag'rikenglik masalalari.</b>	
M.Otamurodov.....	330
<b>Iste'molchilik jamiyatiga doir qarashlar.</b>	
A.Mirzaxmedov.....	335
<b>Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida rahbar va boshqaruv kadrlarni tayyorlash masalalari.</b>	
I.Arzimatova.....	339
<b>Muhammad Porso ta'limotining yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviy tarbiyasidagi ilmiy va amaliy ahamiyati.</b>	
M.Gulamova.....	344
<b>Jamiyatda ijtimoiy normalarni takomillashtirishda milliy qadriyatlarning o'rni.</b>	
S.Berdikulova, S.Xudaynazarov.....	348
<b>Bahouddin Naqshband tariqatlarida bag'rikenglik va insonparvarlik masalalari.</b>	
B.Dehqonov.....	352
<b>Xojagon Tasavvufiy tariqatida "Tavba" maqomi haqida.</b>	
O.Sharipova.....	356
<b>Axloqiy tafakkur taraqqiyotida fazilat va illat talqini.</b>	
L.Muxamedjanova.....	360
<b>Samoniylar davri falsafasi va uning Abu Abdulloh Rudakiy falsafiy-axloqiy qarashlariga ta'siri.</b>	
A.Azimov.....	365
<b>Философский анализ исторических и социокультурных аспектов восточного гуманизма.</b>	
У.Джалилова.....	369
<b>Inson kapitalini rivojlantirish markaziy osiyoda taraqqiyot omili sifatida.</b>	
A.Shirinov.....	376
<b>Исторические предпосылки биоэтики.</b>	
Ш.Жумаева.....	381
<b>O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimi va "Yaxshilik"ning hamohanglashuvi.</b>	
M.Abduraxmanova.....	384
<b>Antik davr faylasuflarining Abu Ali Ibn Sino dunyoqarashiga ta'siri.</b>	
D.Axatova.....	389
<b>Yevropada uyg'onish davri falsafasining manbalari va yo'nalishlari.</b>	
D.Normatova.....	393
<b>Orolbo'yi mintaqasida davlat ekologik siyosatini takomillashtirish zaruriyati.</b>	
R.G'ulomova.....	397
<b>Ekologik dunyoqarashning qadriyatlarda namoyon bo'lish xususiyatlari.</b>	
Z.Kenjayeov.....	401
<b>Antik davr falsafiy ta'limotlari va qarashlarida murosa tushunchasining o'ziga xos jihatlari.</b>	
B.Abdusattorov, M.Toshmurodov.....	405
<b>Addiktiv axloq egalari muammoli faoliyatining falsafiy tahlili.</b>	
D.Toshpo'latov.....	410
<b>Postindustrial jamiyatda zamonaviy texnologiyalarning transgumanistik tahlili.</b>	
U.Suvonova.....	413
<b>Hamza ijodiy faoliyatida ayollarning huquq va erkinliklari, gender tenglik masalalari.</b>	
B.Karimova.....	416
<b>Zamonaviy kontsepsiyalarda ijtimoiy taraqqiyot masalasi.</b>	
D.Sagdullayeva.....	418
<b>Flantropik harakatning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsion rivojlanishi.</b>	
I.Toshpo'latov.....	422
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish va uni ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llash.</b>	
Z.Xojaev.....	425
<b>O'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ahamiyati.</b>	
S.Yuldashev.....	429
<b>Ekologik faoliyatning ma'naviy-intellektual asoslarini rivojlantirish masalalari.</b>	